



ASQAD MUXTORNING “OPA - SINGILLAR” ROMANI VA ABDULLA QAHHORNING “NURLI CHO'QQILAR” HIKOYASIDA PORTRET

Dilnavoz Abdumalikova

FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya:

ushbu maqolada badiiy asarda obraz, obraz mohiyatini ochib berishda portret va uning o'rni, opa -singillar orazi tasvirlangan asarlarda tasvir unsurlari haqida so'z yuritilgan. Portret va uning turlari Asqad Muxtorning “Opa-singillar” romani va Abdulla Qahhorning “Nurli cho'qqilar” hikoyasi orqali tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: tasvir, obraz, syujet, estetik funksiya, portret, dinamik tasvir, statik tasvir, “Nurli cho'qqilar”, “Opa-singillar” .

Annotation:

This article discusses the role and significance of the portrait in revealing the essence of a literary work, as well as the use of descriptive elements in works depicting the image of sisters. Different types of portraits are analyzed through Asqad Muxtor's novel “Opa-singillar” (“Sisters”) and Abdulla Qahhor's short story “Nurli cho'qqilar” (“Radiant Peaks”).

Keywords: depiction, image, plot, aesthetic function, portrait, dynamic description, static description, “Nurli cho'qqilar”, “Opa-singillar”.

Sharq adabiyotshunosligida “adabiyot” so‘zining o‘zagi “adab”dir. U insonda har tomonlama kamol topgan odob-axloqni shakllantirishga xizmat qiladi, degan qarash fanda keng tarqalgan. Badiiy adabiyot obyekti esa obrazli tafakkur hosilasi hisoblanadi. Obrazli tafakkur bu — xayolot va haqiqatning muvofiq munosabatlari natijasidir. Bunda yakkalik va umumiylik, go‘zallik va xunuklik, obyektivlik va subyektivlik, ideallik va reallik kabi paradokslar o‘zaro to‘qnashadi.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2025

“Ijtimoiy ong shakllari orasida badiiy adabiyot va san’at borliqni badiiy obrazlar vositasida idrok etishi bilan farqlanadi.”¹ “Obraz” tushunchasi keng va tor ma’nolarni ifodalab keladi. Keng ma’noda obraz - ijodkor tafakkurida yetilgan, tasavvuri bilan sug’orilgan hayot haqiqatini, ya’ni jonivorlar, narsa-buyumlar, hodisalar, xattoki, tabiat obrazini ham ifoda etsa, tor ma’noda esa badiiy asarda aks etgan inson siymosi ifodalaydi.

Jahon adabiyoti tarixiga nazar tashlasak, dastlabki badiiy adabiyot na’munalarida xudolar va afsonaviy mahluqlar badiiy obraz vazifasini bajarib kelganligini guvohi bo‘lamiz. Keyinchalik, davrlar almashinuvi natijasida, oddiy odamlar asarlarning bosh qahramoni darajasiga ko‘tariladi.

Badiiy asarning eng nozik xususiyatlaridan biri bu badiiy obraz vositasida insonning xarakterini, ichki olamini hamda ruhiyatini ochib berishi hisoblanadi. Bu vazifani bajarish uchun esa yozuvshi o‘z ijod na’munasida turli xil qarindoshlik munosabatlari aks etgan obrazlardan ham unumli foydalanadi. Aka-ukalik, opa-singillik munosabatlari buning yaqqol misoli bo‘la oladi.

Jahon, nafaqat jahon, balki o‘zbek adabiyotida ham opa va singil o‘rtasidagi azaliy rishtalarni ifoda etgan asarlar, dastlab mumtoz adabiyotimiz ufqlarining eng birinchi bosqichiga, ya’ni xalq og‘zaki ijodi na’munalariga borib taqaladi.

San’at va adabiyot obrazlar hosilasini aks ettiradi. Adabiyotshunoslikda badiiy obraz turli xususiyatlariga ko‘ra, turlicha tasnif qilinadi. Ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko‘ra obrazlarni ijobiy va salbiyga, ijodiy metodga ko‘ra realistic va romantic obrazlarga, yaratilish usuliga ko‘ra esa fantastic va grotesk obrazlarga ajratish mumkin.

Badiiy asarda obrazning badiiy-estetik qimmatini boyitishga xizmat qiluvchi yana bir muhim belgi bu — tasvir. Asarda tasvir ikki o‘rinda qo‘llanadi. Biri peyzaj deb nomlanadigan bo‘lsa, ikkinchisi portret deyiladi. Biz peyzajga to‘xtalmaymizda, portret haqida fikr bildiramiz.

Portret bu — badiiy asarda ishtirok etayotgan personajlar tasviri hisoblanadi. Portret bu qahramonning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali uning ichki olami, xarakteri, ruhiyati, jamiyatdagi o‘rni va hayotiy taqdirini ochib berishga xizmat qiladigan

¹Quronov.D. Adabiyotshunoslikka kirish. T.2008.B-30



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2025

badiiy vositadir. Portretning maqsadi shunchaki qiyofani chizish emas, balki o'quvchida qahramon haqida tasavvur uyg'otish, uni jonlantirish va esda qolarli qilishdir. "Portret - qahramnning tashqi qiyofasi vositasida uning ichki dunyosini ochish san'atidir. Yozuvchi insonni tasvirlar ekan, aslida uning ruhiyatini chizadi"² Asosan portret ikki xil usulda amalga oshadi:

1. Dinamik tasvir. Bunda personaj tasviri asarning ilk tilga olingan yerida to'laonli tasvirlanishidir. Dinamik tasvir, odatda, xalq og'zaki ijodi namunalariga xos bo'lib, bu orqali qahramonlar bilan asarning ekspozitsiya qismida tanishish imkonini beradi. Shuningdek, o'zbek adabiyoti durdonalaridan hisoblanuvchi Asqad Muxtorning "Opa-singillar" romanida ham Bashorat va Tursinoyning tashqi ko'rinishi, aynan shu, dinamik tasvir yordamida aks ettirilgan:

"Bashorat bu yil o'rik gulida o'n beshga kiradi. Uning yuz-ko'zi otasiga tortgan edi: qoshlari qalin, yum-yumaloq yanoqlari hamisha qizil, nihoyatda pishiq, to'la va baquvvat gavdasi ham xuddi yuziday yumaloq, shuning uchun onasining nimchasini kiyganda qo'ltiq chokidan yirtmay qo'ymasdi. Bashoratning saqichday qora sochi juda kalta, o'rganda dikkayib turar edi."³

Yoki xuddi shu asardan Bashoratning singlisi Tursinoyga berilgan quyidagi ta'rifni ham dinamik tasvirga kiritishimiz mumkin.

"Tursunoy undan ikki yarim yosh kichik bo'lsa ham, sochi beliga tushar, eski duxoba nimchasining orqasini yarqirاتب yuborgan edi. Tursunoy nimranggina uzunchoq yuzi, uchli iyagi bilan onasiga o'xshab ketardi. U marjon, isirg'a, uzuk taqishni birovlardan ko'rib havas qilar, lekin ingichka, kokimtir tomirlari bilinib turgan bo'yni va qo'llariga bu ziynatlar yarashib tushmas edi."⁴

2. Statik tasvir. Bunda personaj tasviri asar davomda oz-ozdan berib boriladi. Statik tasvir aksariyat badiiy adabiyot namunalariga xos bo'lib, unda qahramon xususiyatlari asar yechimiga qadar shakllanib boradi. Masalan, Abdulla Qahhorning "Nurli cho'qqilar" hikoyasida Zuhraning tashqi ko'rinishini tasvirlashda, statistik tasvirdan mahorat bilan foydalanilgan: "Chol-kampir boshqa xunuk xayollarga bormaslik uchun bir-birini ovutdi: Zuhra qoqvosh, ta'bi nozik, dimog'dor qiz bo'lib,

² Белинский. В.Г.Собрание сочинений.Х .1948. С-52

³ Асқад Мухтор. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.Т. 1971.В-21.

⁴ Асқад Мухтор. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.Т. 1971.В-22.



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th December, 2025

maktabdoshlariga qo‘shilmas edi, shahardan lola tergani chiqqan qizlardan birontasi ta’biga yoqib, o‘sha bilan o‘ynab ketgan bo‘lsa ajab emas.”⁵

“Buning ustiga Zuhra nihoyatda ko‘zga yaqin, bir qaragan kishi, ko‘zi xira tortib, yana qaragisi kelar, xususan, xonatlas ko‘ylak kiyib sochini "laylak uya" qilganida maqtoviga "chiroyli" degan so‘z goh kamlik, goh eskilik qilib qolar edi.”⁶

“Kampir bunaqa gaplarni alam ustidagina emas, umuman, kuyib aytar, chunki sho‘x va shaddod Zuhraga qaraganda Fotima bo‘sh Tobroq, sho‘xlik husnning pardozi bo‘lsa kerak, ikkovi bir olmaning ikki pallasini bo‘lsa ham, Zuhraoning oldida uning istarasi so‘nikroq ko‘rinar edi.”⁷

Yuqoridagi misollardan ko‘rinib turganidek, portret opa-singillar obazi aks etgan asarlarda faqat tashqi chizma emas, balki ularning bir-biriga bo‘lgan munosabati, jamiyatdagi ro‘li, ruhiy ziddiyatlari, hayot yo‘llarining farqi kabi elementlarni ochib beruvchi asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Asardagi tashqi ko‘rinish tasviri - yuz ifodasi, kiyim-kechaklar, ko‘z qarashlari - ularning ichki dunyosi haqida bilvosita ma‘lumot beradi va kitob badiiyligini oshirishda asosiy elementlardan biri sifatida vazifa bajaradi. Adabiyotshunos Y.Lotman aytganidek: "Portret - matnning semiotik unsuri bo‘lib, u ijtimoiy, madaniy va ruhiy ma‘nolarni kodlashtiradi. Qahramon qanday kiyimda, qanday qarashda - bularning barchasi ma‘no tashuvchidir".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Белинский. В.Г.Собрание сочинений.Х .1948.
2. Адабий тур ва жанрлар. 1-том – Тошкент, Фан н-ш., 1991.
3. Асқад Мухтор. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти.Т. 1971.
4. Abdulla Qahhor.Anor.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.T.2012.
5. Umurov H. Adabiyot qoidalari.T. 2002.
6. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik– T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr.2008.

⁵Abdulla Qahhor.Anor.G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.T.2012.B-120.

⁶ O‘sha asar.B-120.

⁷ O‘sha asar.B-121.